

ARABLARNING XORAZMGA BOSQINI VA MIGRATSIYA JARAYONLARI

Turayev Diyorbek Bobomurot o'g'li

UrDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada VII-VIII asrlarda Arab xalifaligining Markaziy Osiyo, xususan, Xorazm vohasiga qilgan harbiy yurishlari, uning o'ziga xos xususiyatlari va mahalliy sulolalar o'rtasidagi ixtiloflarning bosqin jarayonini tezlashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, xalifalikning mintaqada o'z mavqegini mustahkamlash maqsadida amalga oshirgan demografik va migratsiya siyosati, arab qabilalarining Xorazmga ko'chib o'tishi hamda ushbu jarayonlarning voqa etnik tarkibi, tili, madaniyati va diniy hayotiga ko'rsatgan transformatsion ta'siri birlamchi manbalar va zamonaviy istoriografik ma'lumotlar asosida atroflicha yoritilgan.

Аннотация: В данной научной статье анализируются военные походы Арабского халифата в Центральной Азии, в частности, в оазис Хорезм, в VII-VIII веках, его особенности, а также роль конфликтов между местными династиями в ускорении процесса завоевания. Подробно рассматриваются также демографическая и миграционная политика, проводимая халифатом для укрепления своих позиций в регионе, миграция арабских племен в Хорезм, а также преобразующее воздействие этих процессов на этнический состав, язык, культуру и религиозную жизнь оазиса, на основе первоисточников и современных историографических данных.

Abstract: This scientific article analyzes the military campaigns of the Arab Caliphate in Central Asia, in particular the oasis of Khorezm, in the 7th-8th centuries, its specific features, and the role of conflicts between local dynasties in accelerating the process of conquest. The demographic and migration policies implemented by the Caliphate to strengthen its position in the region, the migration of Arab tribes to Khorezm, and the transformative impact of these processes on the ethnic composition, language, culture, and religious life of the oasis are also covered in detail, based on primary sources and modern historiographical data.

Kalit so'zlar: Xorazm, Arab xalifaligi, Qutayba ibn Muslim, Xorazmshoh Chag'on, migratsiya, etnik tarkib, islomlashuv, arab tili, Beruniy, istilo, madaniy transformatsiya.

Ключевые слова: Хорезм, Арабский халифат, Кутайба ибн Муслим, Хорезмшах Чаган, миграция, этнический состав, исламизация, арабский язык, Беруни, завоевание, культурная трансформация.

Keywords: Khorezm, Arab Caliphate, Qutayba ibn Muslim, Khorezmshah Chagan, migration, ethnic composition, Islamization, Arabic language, Beruni, conquest, cultural transformation.



KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixining eng burilish nuqtalaridan biri, shubhasiz, arab istilolari va o'lkada islom dinining yoyilish davridir. Ushbu jarayonlar faqatgina siyosiy hokimiyatning almashishi bilan cheklanib qolmay, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ayniqsa, demografik qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi. Buyuk sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan Xorazm vohasi o'zining geografik izolyatsiyasi, o'ziga xos davlatchilik an'analari va kuchli madaniy o'ziga xosligi (identikligi) bilan ajralib turardi. Arablarning Xorazmga kirib kelishi va undan keyingi ommaviy migratsiya jarayonlarini o'rganish voqa xalqining etnik shakllanishi, tili va madaniy merosini to'g'ri anglashda fundamental ahamiyatga ega.

Muammoning o'rganilish darajasi. Xorazmning arablar tomonidan zabt etilishi va uning oqibatlari ilk o'rta asr arab mualliflari Tabariy, Ibn al-Asir, Balazuriy asarlarida hamda buyuk xorazmlik olim Abu Rayhon Beruniy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Sovet davri tarixshunosligida S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi ushbu davrga oid ulkan moddiy ma'lumotlarni to'pladi. Mustaqillik yillarida esa o'zbek tarixshunosligida (A.Asqarov, A.Anorboyev, H.Bobobekov va boshqalar) mavzuga mafkuraviy qarashlardan xoli, xolis baho berish tamoyillari asosida yondashila boshlandi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi arablar tomonidan Xorazmning zabt etilish mexanizmlarini ochib berish, harbiy harakatlar ortidan kelib chiqqan demografik ko'chishlar (migratsiya) miqyosini aniqlash va ushbu jarayonning Xorazm etno-madaniy muhitiga ko'rsatgan uzoq muddatli ta'sirini kompleks tahlil qilishdan iborat.

ASOSIY QISM.

Islomgacha bo'lgan davrda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy ahvoli.

VII asr oxiri va VIII asr boshlarida Xorazm o'zining qadimgi davlatchilik tizimi — Xorazmshohlar unvoni ostidagi mahalliy sulola boshqaruvi ostida edi. Bu davrda davlat poytaxti Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan Kat shahri hisoblangan [1:45]. Voqa iqtisodiyoti rivojlangan dehqonchilik, murakkab irrigatsiya tizimlari va xalqaro karvon savdosiga tayanar edi.

Biroq, VII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Xorazm ichki ijtimoiy va siyosiy inqirozni boshdan kechira boshladi. Markaziy hokimiyat (Xorazmshoh) va mahalliy yirik yer egalari (dehqonlar) o'rtasidagi ziddiyatlar kuchaydi. Bundan tashqari, voqa ichida ijtimoiy tabaqalanish ortib, quyi tabaqalarning norozilik harakatlari boshlandi. Aynan mana shunday ichki tarqoqlik va ijtimoiy beqarorlik davrida Janubiy va G'arbiy Osiyoni o'ziga bo'ysundirib ulgurgan Arab xalifaligi qo'shinlari Movarounnahr chegaralariga, xususan, Xorazm eshiklariga yetib keldi [2: 112].



Xorazmning diniy manzarasi ham o'ziga xos bo'lib, bu yerda zardushtiylikning maxsus, mahalliy shakli ustuvor edi. Shu bilan birga, voha aholisi orasida nasroniylik (nestorianlik), yahudiylik va maoniylik dinlari vakillari ham istiqomat qilar edilar. Bunday xilma-xillik madaniy hayotning boyligini ko'rsatsa-da, umumiy g'oyaviy birlikning zaiflashishiga ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatgan.

Arablarning Xorazmga harbiy yurishlari.

Arablarning Movarounnahr va Xorazmga tomon ekspansiyasi Umaviylar xalifaligi davrida (661–750) yangi bosqichga ko'tarildi. Xuroson voliyligi markazi bo'lgan Marv shahri arab qo'shinlarining shimol va sharqqa yurishlari uchun asosiy platsdarm vazifasini o'tadi [3: 78]. Xorazmga ilk arab otliqlari guruhi VII asrning oxirlaridayoq kirib kelgan edi. Biroq bu yurishlar keng ko'lamlı bosqinchilik xarakteriga ega bo'lmay, ko'proq razvedka va o'lja to'plash maqsadidagi reydlar edi. Mahalliy aholi bu reydlarga qarshi shiddatli qarshilik ko'rsatdi va arablar uzoq vaqt vohada o'rnashib qola olmadilar.

Xorazmning uzil-kesil taslim etilishi Umaviylarning iste'dodli va shafqatsiz sarkardasi, Xuroson voliyisi Qutayba ibn Muslim nomi bilan bog'liq. 705-yilda hokimiyatga kelgan Qutayba Movarounnahrni qadam-baqadam bosib olish rejasini tuzdi. 712-yilda Xorazmda jiddiy ichki siyosiy inqiroz yuz berdi. Amaldagi Xorazmshoh Chag'on (yoki Chagan) o'zining ukasi Xurrazod boshchiligidagi isyonchi guruhlar va quyi tabaqa vakillarining tazyiqiga uchradi. Xurrazod xalq qo'lloviga tayanib, mamlakatda katta ta'sirga ega bo'lib oldi. O'z hokimiyatini saqlab qolishga uringan Xorazmshoh Chag'on Qutayba ibn Muslimga yashirincha elchi yo'llab, undan harbiy yordam so'radi va evaziga xalifalik xiroj to'lash hamda uning oliy hokimiyatini tan olishga va'da berdi [4: 204]. Qutayba bu qulay vaziyatdan unumli foydalandi. U o'z qo'shinlarini tezlik bilan Xorazmga burdi. Arab qo'shinlarining yaqinlashayotganidan xabar topgan Xurrazod tarafdorlari mudofaaga tayyorlandilar, biroq yaxshi qurollangan va harbiy tajribaga ega xalifalik armiyasi Kat shahriga bostirib kirdi. Isyon shafqatsizlarcha bostirildi, Xurrazod va uning minglab tarafdorlari qatl etildi.

Biroq Qutayba ketishi bilan Xorazm aholisi qayta qo'zg'olon ko'tardi va arabparast Xorazmshoh Chag'onni o'ldirishdi. Bu voqeadan g'azablangan Qutayba 712-yilning oxirida Xorazmga ikkinchi marta, yanada katta kuch bilan bostirib kirdi [5: 89]. Bu safar u vohaning ikkinchi yirik markazi — Gurganj (Urganch) shahrini ham vayron qildi va butun vohada qatliom uyushtirdi.

Madaniy qirg'in va uning oqibatlari.

Qutayba ibn Muslim Xorazmda nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-madaniy qirg'inni ham amalga oshirdi. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy o'zining mashhur "Asor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarida shunday yozadi: "Qutayba xorazmlik xatshunoslarni o'ldirgan, ularning dindor-ruhoniylarini qirib tashlagan va kitoblari hamda qo'lyozmalarini yoqib yuborgan bo'lsa, u holda xorazmliklar savodsiz



bo'lib qoldilar va o'zlarining ehtiyojlarida faqat yodda qolgan narsalarga tayanadigan bo'ldilar..." [6: 48]. Bu harakatlar mahalliy xalqning tarixiy xotirasini yo'qotish va ularni islom diniga hamda arab madaniyatiga tezroq moslashtirish maqsadida ataylab qilingan siyosat edi.

Migratsiya jarayonlari: Arablarning Xorazmga ko'chirilishi.

Xorazm va butun Movarounnahrda faqat harbiy kuch bilan uzoq vaqt qolish qiyin edi. Shu sababli Umaviylar va keyinchalik Abbosiylar xalifaligi (750-yildan keyin) bosib olingan hududlarni demografik jihatdan o'zgartirish siyosatini yurita boshladi. Bu jarayon tizimli va rejalashtirilgan migratsiya ko'rinishiga ega edi.

Migratsiyaning sabablari va rag'batlantirilishi.

Arabiston yarim oroli, Iroq va Suriya hududlaridan arab qabilalarini ko'chirishdan bir necha maqsad ko'zlangan edi:

- Harbiy tayanch yaratish: Mahalliy qo'zg'olonlarni tezkor bostirish uchun har doim tayyor turadigan harbiy qatlamni shakllantirish.

- Islomlashtirishni tezlashtirish: Arabiyzabon aholi mahalliy xalq uchun "namuna" bo'lishi va kundalik hayot orqali yangi dinni singdirishi kerak edi.

- Iqtisodiy nazorat: Hosildor yerlar va strategik savdo yo'llarini bevosita ishonchli kuchlar qo'liga topshirish.

Xalifalik hukumati ko'chib o'tgan arab oilalariga mahalliy aholidan tortib olingan eng unumdor yerlarni berdi, ularni soliqlar (xiroj va jizya)dan ozod qildi va davlat xazinasidan maosh (ato) bilan ta'minladi [7: 134]. Arab qabilalari, asosan, Xorazmning strategik jihatdan muhim shaharlari — Kat, Gurganj, Hazorasp va daryo kechuvlari yaqinidagi rabotlarda joylashtirildi. Vaqt o'tishi bilan shaharlarda maxsus "Arab mahallalari" (mahallat al-arab) shakllandi [8: 92].

Migratsiya va bosqinning etno-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

Arab istilosi va undan keyingi demografik siljishlar Xorazm vohasining kelgusi taraqqiyot yo'nalishini belgilab berdi. IX-X asrlarga kelib, Xorazmdagi arablar o'zlarining ona tillarini unuta boshladilar va kundalik hayotda xorazmiy tiliga (keyinchalik esa turkiy tilga) o'tdilar. Bugungi kunda ham Xorazm va Qoraqalpog'istonning qator tumanlarida, Shovot va Xonqa kabi hududlarda o'zlarini "Xoja", "Sayyid" yoki to'g'ridan-to'g'ri "Arab" deb ataydigan etnik guruhlarining mavjudligi o'sha davrdagi ulkan demografik ko'chishlarning bevosita tarixiy asoratidir [9: 156].

Qutayba yurishlaridan so'ng jizya og'irligi tufayli voha aholisi ommaviy ravishda islom dinini qabul qila boshladi. Dastlab bu jarayon yuzaki xarakterga ega bo'lgan bo'lsa-da ba'zi manbalarga ko'ra, yangi musulmonlar namozda Qur'on oyatlarini arabcha talaffuz qila olmay, fors yoki xorazmiy tillariga tarjima qilib o'qishgan [10: 210] IX asrga kelib Xorazm islom dunyosining eng dindor va mustahkam bo'g'inlaridan biriga aylandi. Xorazmda islom dinining hanafiy mazhabi va keyinchalik mo'taziliylik hamda tasavvufiy oqimlar (masalan,



Kubraviylik) keng tarqaldi. Zardushtiylik ibodatxonalari vayron qilinib, ularning o'rnida masjid va madrasalar qad ko'tardi.

Til va ilm-fan sohasidagi intellektual inqilob.

Eski xorazmiy yozuvining yo'q qilinishi katta fojia bo'lsa-da, uning o'rniga kirib kelgan arab alifbosi va arab tili Xorazm olimlari uchun butun xalifalik miqyosidagi ulkan ilmiy makonga yo'l ochdi. Arab tili o'sha davrning "lotin tili" — ya'ni xalqaro ilm-fan tiliga aylandi. Xorazmlik allomalar qisqa muddatda nafaqat arab tilini o'zlashtirdilar, balki shu tilda jahonshumul asarlar yaratdilar. Buning yaqqol isboti sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy: Algebra faniga asos soldi, uning asarlari tufayli dunyoga "algoritm" tushunchasi kirdi. Abu Rayhon Beruniy: Astronomiya, geodeziya va mineralogiya sohasida inqilob qildi. Abu Bakr al-Xorazmiy: Arab adabiyoti va ritorikasining yetuk namoyandasi bo'lib yetishdi. Bu jarayonlar keyinchalik, ya'ni X asr oxiri va XI asr boshlarida Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun davrida mashhur Xorazm Ma'mun akademiyasi (Dorul hikma)ning tashkil etilishiga poydevor bo'ldi [11: 302].

Xorazmning Arab xalifaligi kabi ulkan imperiya tarkibiga kiritilishi uning iqtisodiy aloqalarini misli ko'rilmagan darajada kengaytirdi. Arab va islom dunyosining boshqa hududlaridan kelgan savdogarlar vohaning tranzit salohiyatini oshirdilar.

Xorazm Shimoliy Yevropa, Volga bo'yi (Xazarlar xoqonligi, Volga bulg'orlari) va Rus knyazliklari bilan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarini bog'lovchi eng asosiy savdo darvozasiga aylandi. Gurganj shahri bu davrda yirik savdo megapolisiga aylandi [12: 115]. Vohadan tashqariga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, quritilgan mevalar, qorako'l terilari va hunarmandchilik buyumlari eksport qilinadi, evaziga esa shimoldan mo'yna, mum va qullar olib kelinar edi. Ushbu iqtisodiy jonlanish migratsiya oqimini ijobiy tomonga yo'naltirdi — endilikda vohaga askarlar emas, balki boy tadbirkorlar va hunarmandlar ko'chib kela boshladi.

Xorazmni egallaganidan keyin arablar bu hududlarda o'troqlashib, mahalliy aholi tarkibiga singib ketganini ko'rishimiz mumkin. Hozirda viloyatning ayrim tumanlarida arablar yashaydigan qishloq va arabcha joy nomlari saqlanib qolgan. Qo'shko'pir tumanida joylashgan Qatag'on qishlog'i aholisi arablar va baratlar qavmlaridan tashkil topgan. Qutaybaning Xorazmga bosqini davrida arablar o'rnashib qolganlar va ular ming yillar davomida mahalliy aholi sharoitiga moslashganlar [13: 50].

Shix qishlog'i Xorazm vohasining janubi-g'arbida, Turkmaniston bilan chegaradosh bo'lgan hududda qaror topgan. "Shix" so'zi asli "Shayx" atamasining Xorazmcha buzib talaffuz etilishidan kelib chiqqan. "Islom" ma'lumotnomasida Shayx so'zi shunday izohlanadi: "Shayx" (arabcha – keksa, oqsoqol) – Islom dini tarqalgan mamlakatlarda so'fiylik tariqatidagi pirlar, eshonlar, "Muqaddas joylar" ning mutasaddilari ham Shayx deb



yuritilgan. VIII asrdan buyon bu qishloq aholisini va qo'shni Taxta tumani xalqini Ismomut shixlari deb ataydilar [13: 58].

Ko'hna Zey qishlog'i hududlarida arablar elat-qavmi mavjud. Arablar VII-VIII asrlarda qishloq sarhadlariga ko'chib kelib o'troqlashib qolganlar va mahalliy aholining tili, yozuvi va turmush-tarzini qabul qilib qishloq hayotiga moslashib ketganlar. [13: 69].

Hayrobod qishlog' Qo'shko'pir tumanida joylashgan bo'lib, shimoli-sharq tomondan Yangiliq, O'zbekiyop qishloqlari bilan, janubi-g'arb tomondan Xiva tumani bilan chegaradosh. Qishloqning "Kallalik" qismida arablar qavmi VIII asrdan boshlab istiqomat qiladilar. Ular hozirgi kunda butunlay o'zbeklashib, o'z tilini unutib yuborganlar [13: 71].

Xorazm toponimiyasining oraliq davri tarixiy jihatdan arablar istilosi va undan keyingi davrga to'g'ri keladi. Hozirgi davrda Xorazm toponimiyasida Arablar, Arabxona, Arabovul kabi o'nlab qishloq nomlari shuningdek ayrim kishilarning nomlari va laqabi sifatida uchraydigan arab (Buvajan arab, Madamin arab) so'zlari o'sha davrning nomlaridir. Xorazm toponimiyasida arab elementlarining saqlanaib qolishi musulon dini bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyati diniy terminlar hisoblanadi [14: 29].

Xorazmda Vaxt, Vaxtyop kabi o'nlab toponimlar uchraydi, ular kelib chiqishiga ko'ra oraliq davrga borib taqaladi.

Vaqf arabcha turish, turoq, qo'zg'almas degan ma'noni bildiradi. Ijtimoiy termin sifatida vaqf – musulmon qoidalariga muvofiq davlat va ayrim kishilar tomonidan xayrli maqsad yo'lida ajratilgan mol-mulk ma'nosini anglatadi [14: 31].

Saqa toponimi arabcha so'z bo'lib "sug'orish" ma'nosini anglatadi. Dashsaqa, Arnasaqa kabi nomlar tarkibida ishtirok etadi. Xorazm va Turkmanistonda manba, ariqning boshlanish joyi degan ma'noni anglatadi [14: 73].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arablarning Xorazmga bosqini va undan keyingi ommaviy migratsiya jarayonlari murakkab va ziddiyatli tarixiy hodisadir.

Bir tomondan, Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi istilo mahalliy davlatchilik an'analariga og'ir zarba berdi, qadimgi madaniy boyliklar, qo'lyozmalar va elitaning yo'q qilinishiga olib keldi.

Ikkinchi tomondan, arab qabilalarining vohaga ko'chib o'tishi va mahalliy aholi bilan integratsiyalashuvi natijasida voha yangi bir sivilizatsion makonga — Islom renesansi tizimiga qo'shildi.

Arab tili va madaniyatining kirib kelishi Xorazm allomalariga o'z salohiyatlarini dunyo miqyosida namoyon etish imkonini berdi. Etnik jihatdan esa, arab komponenti Xorazm vohasi aholisining shakllanishida ma'lum darajada ishtirok etib, uning bugungi kungi boy etno-madaniy manzarasini ta'minladi.

Arablar bosqini Xorazmga nafaqat diniy tarafdin, balki migratsiya, savdo-iqtisodiy, madaniy va etnik jihatdan katta ta'sir ko'rsatadi.



Xorazm hududida arabcha toponomik nomlarning mavjudligi va arablarning bu hududda o'troqlashib qolganiga dalil bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm: Opit istoriko-arxeologicheskogo issledovaniya. – Moskva: MGU, 1948. – S. 45-52.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – B. 112-118.
3. Gibb H.A.R. The Arab Conquests in Central Asia. – London: The Royal Asiatic Society, 1923. – P. 75-81.
4. Ibn al-Asir. Al-Komil fit-tarix (Mukammal tarix). Erkakbaeva tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – B. 202-208.
5. Shaniyazov K.Sh. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. – Tashkent: Fan, 1974. – S. 89-94.
6. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, I tom. – Toshkent: Fan, 1968. – B. 48-51.
7. Barthold W.W. Turkestan Down to the Mongol Invasion. – London: Luzac & Co, 1928. – P. 134-140.
8. Yoqubov A. Xorazm tarixi sahifalari. – Nukus: Qoraqalpog'iston, 1994. – B. 90-97.
9. Gubayeva S.S. Etnicheskii sostav naseleniya Fergani i Xorezma v sredniye veka. – Moskva: Nauka, 1983. – S. 154-160.
10. Abu Bakr Muhammad ibn Jafar an-Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 210-215. (Movarounnahrda islomlashuv jarayonlari qiyosiy tahlili uchun).
11. Sodiqov H. Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixi va madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2011. – B. 301-307.
12. Kennedy H. The Great Arab Conquests: How the Spread of Islam Changed the World We Live In. – Philadelphia: Da Capo Press, 2007. – P. 115-122.
13. P.Машарипов. Мозий садолари ва сабоклари.
14. 3. ДУСИМОВ. Хоразм топонимлари.

